HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN YANGI O‘ZBEKISTONGACHA: ISLOHOTLAR SARHISOBI

E.E.Kurbanov
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi mudiri,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan beshta ustuvor yo‘nalishdagi Harakatlar strategiyasining mamlakatdagi keyingi besh yillik islohotlarga zamin yaratganligi tahlil etiladi. Maqola strategiyaning davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash va konstruktiv tashqi siyosat kabi muhim yo‘nalishlarini qamrab olganligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, islohotlar, davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi, iqtisodiy liberallashtirish, ijtimoiy soha, xavfsizlik, sud-huquq tizimi, majburiy mehnat, fuqarolik berish, qambag‘allikni qisqartirish, Yangi O‘zbekiston

2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlarga asos soldi. Strategiya davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash, o’zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish kabi muhim yo’nalishlarni qamrab olgan edi.

Mutaxassislar fikricha, mamlakatimizda siyosiy islohotlar sohasida so’nggi besh yilda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” kontseptsiyasi hayotga tatbiq etildi, sud-huquq tizimini isloh qilish “Kuch – adolatda!” tamoyiliga asoslandi. Iqtisodiy islohotlar “Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta’minlab bo’lmaydi” tamoyili asosida amalga oshirildi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish esa “Islohotlar islohot uchun emas, balki jamiyat manfaati uchun” tamoyilidan kelib chiqdi. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash, tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo’nalishlar konstruktiv xarakterga ega bo’ldi.

Islohotlar jamiyat hayotiga chuqur kirib bordi. Agar dalillarga murojaat etadigan bo’lsak, jamiyatimizda keng aholi qatlamlarini qamrab olgan, odamlarni tashvishga solib kelgan majburiy mehnatga, ayniqsa, bolalar mehnatiga barham berilgani yaqqol misol bo’ladi. Shuningdek, uzoq yillar davomida fuqarolikdan mahrum bo’lib kelgan yurtdoshlarimizga O’zbekiston fuqaroligini berishning adolatli tizimi shakllandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror o’sish sur’atlari va aholi daromadlari ortishi ta’minlanmoqda. Milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi yo’lga qo’yildi. Soliq siyosati sohasida keng miqyosdagi islohotlar boshlandi. Yurtimizda aholi o’rtasida kambag‘allik mavjudligi ilk bor ochiq tan olinib, uni qisqartirish bo’yicha milliy dasturlar ishlab chiqildi va hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Aniq ma’lumotlarga qaraganda, 2016-yilning dekabr oyidan 2022-yil yakuniga qadar O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 97 ta farmoniga asosan, jami 23 ming 310 nafar fuqaroligi bo’lmagan shaxs O’zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan.

Davlatimizda 2017-yildan boshlangan yangilanishlar jarayoni yangi O’zbekiston g‘oyasi uchun muhim bo’lgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaminlar yuzaga kelishiga imkoniyat yaratdi. Albatta, yurtimizda taraqqiyotning yangi bosqichi jahonda kechayotgan nobarqaror va murakkab, inqirozli hodisalar hamda milliy taraqqiyot tajribasi va uning natijalarining tizimli tahlili asosida amalga oshirilmoqda. Keng ko’lamli islohotlar natijasida odamlarning ertangi istiqbolga

ishonchi ortdi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat hokimiyati faoliyatining pirovard maqsadiga aylandi.

Keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so’zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo’nalishlari *“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”* tamoyiliga asoslandi. Harakatlar strategiyasida beshta ustuvor yo’nalishdan iborat bo’lsa, Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasiga bunyodkor g‘oyalarga asoslangan islohotlarni yangi tarixiy bosqichda davom ettirishni nazarda tutuvchi yana ikkita yangi ustuvor yo’nalish qo’shildi, ularning har biri muayyan sohalarni rivojlantirishga qaratildi.

–O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoniga binoan, jami yettita ustuvor yo’nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Tabiiyki, Taraqqiyot strategiyasi keyingi besh yilda bosqichma – bosqich amalga oshiriladi.

Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarining ahamiyatli jihatlardan biri – barcha davlat organlariga mahallalardan murojaat qilish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko’rsatish tizimi yaratilmoqda. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda *mahallaning “faol” modeli* joriy etilmoqda. Strategiyaga binoan mahallani aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash maqsadida 2022-yilda quyidagilar ko’zda tutilmoqda:

- mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo’yicha *tuman (shahar) hokimi yordamchilari* hamda yoshlar yetakchilari faoliyatini samarali yo’lga qo’yish;

- barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o’z yo’nalishi bo’yicha muammolarni o’rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilash;

- mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko’rsatish, shu jumladan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo’lga qo’yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzini oshirish;

- mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammalarni hal etishda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining vakolatlari qayta ko’rib chiqilib, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

- mahallalarning **“o’sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish;

- mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko’maklashish va o’qitish markazlari, tadbirkorlik ob’ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mahalliy vakillik organlari o’rtasidagi doimiy hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratish, shu jumladan mahalla raisi tomonidan mahalliy Kengash majlisida ko’rilishi majburiy bo’lgan masalalarni kiritishning samarali mexanizmlarini yo’lga qo’yish;

- fuqarolar tomonidan mahalla raisiga nisbatan *ishonchsizlik bildirish institut*ini joriy etish.

Taraqqiyot strategiyasi bandlarini 2022-yilda amalga oshirish bo’yicha davlat dasturida adolat va qonun ustuvorligiga oid quyidagilarni bajarish nazarda tutilgan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda, fuqarolik va ma’muriy ishlar bo’yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko’rsatish tartibi joriy etilsin;

- qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma’muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o’ziga yuklash tartibiga amal qilinishi qat’iy ta’minlansin;

- harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo’yicha yagona onlayn elektron reestr yuritilishi yo’lga qo’yilsin.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat ijtimoiy himoya siyosatining bir qator vazifalari belgilangan:

- 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to’liq qamrab olish;
- ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, jumladan, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish;
- kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish;
- “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo’lgan shaxslar bo’yicha alohida ma’lumotlar bazasini yaratish, jumladan, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” ni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” bilan integratsiya qilish.

Bugungi kunda jahon taraqqiyotini belgilovchi tendentsiyalarni hisobga olganda, inson salohiyatining oshishi eng asosiy omillardan biridir. Shunday ekan, inson kapitali iqtisodiy qiymatga ega bo’lgan insonning bilimlari, ko’nikmalari, qobiliyat va rag‘batlari zaxirasidir. U ham insonga, ham jamiyatga istiqboldagi daromad va yuksalish manbai bo’lib xizmat qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, inson kapitali – inson ega bo’lgan bilim, ko’nikma va qobiliyatlar yig‘indisigina emas, balki u:

birinchidan, shunday zaxiraki, u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o’sishiga imkon beradi;

Ikkinchidan, to’plangan bilim, ko’nikma va qobiliyatlar zaxirasidan maqsadga muvofiq foydalanishidir;

uchinchidan, daromadning ko’payishi odamni rag‘batlantiradi va qiziqtiradi, shuningdek yangi bilim va ko’nikmalar zaxirasini to’plashga va kelajakda ulardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Dunyo amaliyotida inson kapitaliga ajratiladigan sarmoyalar asosan umumiy va maxsus ta’lim olish, ish bilan ta’minlash, kasbiy tayyorgarlik, bolalarni voyaga yetkazish va boshqalar bilan bog‘liq sarf-harajatlarni o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan taraqqiyot strategiyasida bu masalaga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Jumladan, ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni sezilarli darajada oshirish, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni hozirgi 67 foizdan 80 foizga oshirish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, malakali o’qituvchilarning oylik maoshini ming AQSh dollari darajasiga yetkazish, aholini Oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish va boshqa masalalar inson kapitalini rivojlantirish davlatchiligimiz taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyat ega ekanligining tasdig‘idir.

“Ma’naviy hayotimizda bo’shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteti zaif bo’lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham begonalarga ko’r-ko’rona ergashmoqda. Milliy o’zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo’lmoqda, desak, to’g‘ri bo’ladi”, – dedi Prezidentimiz. – Shu munosabat bilan “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” kontseptsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi”. Bizning nazarimizda, Ma’rifatli jamiyat Kontseptsiyasining maqsadi — aholining yoshlar qatlami o’rtasida huquqiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini oshirish mexanizmlarini tashkil qilish va Yangi O’zbekiston ustuvor maqsad-vazifalarini keng jamoatchilik, yoshlar qatlamiga ommabop tilda yetkazish orqali ma’rifatli jamiyat tizimini shakllantirish bo’lmog‘i lozim. Ushbu ezgu maqsadlarga erishish, uni amalda ro’yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

milliy ta’lim-tarbiya tizimi zaruriy tarkibiy qismlari, jumladan, fanlarni o’qitish metodologiyalarini o’quvchi-talabalarni erkin fikrlash, kreativ-innovatsion yondashish usullariga moslashtirish masalasini tubdan qayta ko’rib chiqish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatini sobiq ittifoq davri boshqarish uslubi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash, xulosalar berish;

o’quvchilar va talabalarning fikrlash tarzi hamda jamiyatda o’zini tutishi holatidan kelib chiqib, Milliy etik qoidalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

birinchi navbatda yoshlarning ong-u tafakkurini Yangi O’zbekiston strategiyasi talablari asosida shakllantirish mukammal mexanizmini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Raxmanova. Nekotorie osobennosti razvitiya parlamentarizma v Uzbekistane // «Gumanitarniy traktat». №21. 2018.

2. Xakimov O. Strategiya Novogo Uzbekistana prodoljaet Strategiyu deystviy // Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie». №10 (262). 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbiplap to‘g‘ricida” gi 349-con qaropi. 10.05.2018. // https://lex.uz/docs/3730223

4. Saidolimov S. O‘zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlarga asoslangan faol va pragmatik yo‘l // Oriental renaissance: Innovative, edusational, natural and social scienses. – 2021. –T.1. – №.11.

5. https://daryo.uz/k/2022/07/25/songgi-6-yilda-qancha-odamga-ozbekiston-fuqaroligi-berilgani-malum-boldi/

6. 2022-2026 yillaρga mo‘ljallangan Yangi O‘zbeĸistonning taρaqqiyot stρategiyasi to‘g‘ρisida O‘zbeĸiston Pespublikasi Pρezidentining Faρmoni, №PF-60 //https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf

7. Saidov A. Yangi O‘zbekicton Taraqqiyot strategiyasi — inson qadrini ulug‘lagan Xalqchil bosh dastur. 28.01.2022. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur

8. Pardaev F.M. “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshirilgan islohatlar. // Kapital bozorini rivojlantirish va xususiylashtirish sharoitida korporativ boshqaruvni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent.: 2022.

9. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-60

10. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-60. 28.01.2022 y. https://lex.uz/docs/5841063

11. M.Nazirov, M.Yergashboev. Inson kapitali – Uchinchi Renesansning mustahkam poydevori // Islom tafakkuri. – 2021. – T. 1.

12. D.Rustamova. Inson kapitaliga sarflangan investisiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari // Iqtisod va moliya. -2015. -№1.

13. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekicton strategiyasi. Toshkent, O‘zbekicton, 2021.

14. Omonov B. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirishga doir mulohazalar. Ideosphere jurnali, 2022 yil №3.